

AVESTODA AXLOQ VA INSON HUQUQLARI MUAMMOLARI

Eshboeva Farangiz Shuhratovna,
Bobonazarova Shahzoda Anvar qizi

Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi
Ilmiy rahbar: **Bahodir Qandov,**
Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Avestoda kelgan ishonch masalalari o‘timishdagi e‘tiqodiy qarashlar hozirgi kunda Avestodagi axloqiy masalalarni ta‘siri va axloqiy muamolar va bugungi kundagi e‘tiqod muamolari va ularning yechimlari haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: zardushtiylik dini, Avesto, inson, inson huquqlari, axloq, axloqiy tarbiya, ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal, din, ma‘naviyat.

ПРОБЛЕМЫ ПРАВСТВЕННОСТИ И ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В АВЕСТЕ

Аннотация: В данной статье анализируются проблемы морали и прав человека в зороастризме с социально-философской точки зрения. В статье также рассматриваются вопросы доверия к Авесте, влияние религиозных верований в прошлом, влияние правовых и этических проблем сегодня, а также этические проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: зороастризм, Авесто, человек, права человека, нравственность, нравственное воспитание, добрая мысль, доброе слово, доброе дело, религия, духовность.

Qadimgi Sharqda inson huquqlari to‘g‘risida fikr yuritilganda, birinchi o‘rinda zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”ga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Inson huquqlari muammolari Markaziy Osiyoning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy ta‘limotlarida o‘z aksini topdi. Bunga qadimgi va o‘rta asrlardagi Markaziy Osiyoning diniy-falsafiy va huquqiy tizimlarining tahlili guvohlik bermoqda, xususan, e.a. VIII asrda paydo bo‘lgan zardushtiylik dinini misol qilib olishimiz mumkin. Bizga ma‘lumki, bu din falsafasining markazida yaxshilik xudosi Axuramazda va yomonlik xudosi Axriman o‘rtasidagi kurash yotadi. Avesto ta‘limotida insonni ruhan poklash, ishonch, e‘tiqodiy, axloqiy, tarbiyaviy, diniy, dunyoviy ilmlarni o‘rganishga ularga amal qilishga, ezgulikka insoniy go‘zal fazilatlariga da‘vat etadi. Avesto “qat‘iy belgilangan qonun” qoida ma‘nosini anglatadi. Avestoga ko‘ra shaxsning axloqi e‘tiqodi ulug‘langan. Zardusht tomonidan insonning axloqiy e‘tiqodiy tarbiyaviy yetuk bo‘lishi ularni muqaddas burch ekanligi va dunyoviy ishlarni tartib qoidalari va mohiyatini o‘zida aks ettirgan. Zardushtiylikda markaziy o‘rinlardan birini qonun, shartnoma va tanlash kategoriyalari egallaydi. Zardushtiylikning muqaddas kitobining uchdan bir qismini qonunlar tashkil etib, ularning maqsadi mukammal, barcha munosabatlarda uyg‘unlashgan, gullab-yashnaydigan jamiyatni qurishdir. Shartnomaga ishonch alohida qadriyat hisoblangan (shartnoma, og‘zaki va yozma bo‘lgan). Shuning uchun ham, zardushtiylikdagi asosiy xudolardan biri Mitra shartnoma xudosi bo‘lganligi bejiz emas.

Shartnoma boshqalar hayotiga va mulkiga hurmat tamoyillariga rioya etish tushunchasi asosiga qurilgan bo‘lib, u “Avesto”da markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Tabiiyki, fozil hukmdor nafaqat qonunga amal qilishi, balki shu bilan birga, zo‘ravonlikka ham yo‘l qo‘ymasligi kerak. “Avesto” ya‘ni “hayot yo‘riqnomasi” deb atalgan bu kitob Markaziy Osiyoning Xorazm vohasida yaratilgan. Zardushtiylik dinning shakllanishiga asos bo‘lgan nazariy manbalar qadimgi xalqimizning moddiy va ma‘naviy hayoti, diniy qarashlar haqida ma‘lumot beradi. Avesto o‘zining ma‘naviy –axloqiy qarashlari bilan kishilik taraqqiyotida sivilizatsiyaviy ta‘sir ko‘rsatgan buyuk qadriyat[1]. Zardushtiylik islomga qadar bo‘lgan o‘z rivojining necha ming yillik davrida o‘ziga xos diniy-falsafiy tizim sifatida shakllandi hamda Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining aksariyati uchun huquqning universal manbai sifatida xizmat qilib keldi. Huquqshunos N. Safo-Isfixoniyning ta‘kidlashicha, “qonun tushunchasi zardushtiylikning ilk bosqichlaridanoq uning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan. Zardushtiylikka xos muqaddas kitobning uchdan bir qismi turli bosqich va sohadagi qonunga taalluqli edi”, zardushtlarning “amaliy qonunlar”ni o‘zida mujassam etgan muqaddas kitobi – “Avesto”ning maqsadi esa, “har jihatdan va hamma munosabatlarda uyg‘unlikka erishiladigan, uyushgan, gullab-yashnayotgan jamiyat barpo etish”[2]dan iborat bo‘lgan. Zardushtiylik huquqining diniy xususiyatiga qaramay, etnik mansubligi, dini, yoshi, jinsi va qaysi tabaqaga mansubligidan qat‘i nazar, shaxs huquqlari unda Rim huquqidan kam bo‘lmagan darajada shakllangan va qaror topgan. Shu bois, tadqiqotchilar zardushtiylik qonunlari “odamlarning xohish-irodasi erkinligiga e‘tibor beradi”[3, 36], deb ta‘kidlashlari bejiz emas.

“Avesto”ning hayot yo‘riqnomasi deb atalishi bejiz emas chunki avestoning yo‘riqnomalari nafaqat qadimgi xalqlarimiz uchun balki bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan holda insoniyatga o‘z tavsiyalarini berib kelmoqda. “Avesto” shaxsni komillik sari yetaklab axloqiy hamda ruhan poklanishga ko‘mak beradi. Insonlar qalbida mehr-oqibat yaxshik ezgulikni yoyishga yovuz niyatlar ustidan qilingan g‘alabaning lazzatini tuyishda shaxsni ruhan, ma‘naviy jihatdan rag‘batlantiradi.

“Avesto” haqida birinchi prezidenti shunday fikr bildirgan “bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig‘ida mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma‘naviy, tarixiy, me‘rosidir[2]. Albatta bu fikrlar bugungi kunda o‘z tasdig‘ini topgan bunday qarashlarga sabab bor albatta “avesto” o‘tmishimizning naqadar buyukligini, ajdodlarimizning zukko va e‘tiqodlari kuchli ekanligining dalilidir. “Avestoda” ishonch, e‘tiqod, axloq, ezgulik haqidagi madhiyalar baralla kuylangan bu masalalar bugungi kunda xam o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. “Axloq – jamiyat, zamon, ba‘zan insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma‘naviy hodisa[3]. Axloq butun jamiyat, butun dunyo ahli uchun juda muhim bo‘lgan murakkab hodisa hisoblanadi. Bizga namuna sifatida ajdodlarimiz axloqiy qarashlari unga bo‘lgan munosabatlari qa‘tiy amallari muhim ahamiyat kasb etadi. Insoniyat tarixi va kelajagi uchun keyinchalik boshqa xalqlarga o‘rnak bo‘la oladigan axloqiy qarashlar yarata olishi uchun axoqning o‘rni juda beqiyosdir shaxsning kamol topib rivojlanishi kelajak avlod tarbiyasi uchun axloqiy qarashlarga katta ahamiyat bermog‘imiz lozim. “Avesto” o‘zining ma‘naviy-axloqiy qarashlari bilan bir necha ming yillik taraqqiyotida ta‘sir ko‘rsatgan buyuk qadriyat[4]. To‘g‘ri yashash inson bolasiga alloh taolo tomonidan buyurilgan quroni karim oyatlarida ham buyurilgan yo‘l yo‘riqlardir. Biz to‘g‘ri yashashni o‘zimizga kasb etsak, axloqiy me‘yorlarga qanchalik amal qilsak hayotimiz farovon, kelajagimizning poydevori metin kabi mustahkam bo‘ladi.

“Avesto”ning tub ma‘no – mohiyatini belgilab beradigan “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” degan tamoyilini oladigan bo‘lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo‘lgan saboqlar borligini ko‘rishimiz mumkin. Ana shunday fikrlar, ya‘ni ezgu niyat so‘z va ish

birligini jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma'naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog'liq, nechog'liq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e'tiborlidir[5].

Avvalo inson ongu-shuurida, vujudida, orzu – istaklarida ezgu fikrlar, bunyodkor g'oyalar ildiz otmog'i insondagi botiniy g'oyalarning, vayronkor istaklarning zavoli deb tariflasak adashmagan bo'lamiz. Inson har qanday vaziyatda ham ezgu so'zli bo'lmog'i lozim bu bizning buyuk merosimiz avestoda ham o'z aksini topgan aslini olganda ezgu so'zning birgina o'zi ham buyuk ibodat hisoblanadi.

“Avesto”, - deydi S.G. Ganbarov, - tug'ilgan va hali dunyoga kelmagani bolalarning huquqlarini qat'iy muhofaza etgan”. Voyaga etmagan bolalarni ota-onasidan olib ketib qolish, ularni vasiyiksiz qoldirishga og'ir jinoyat sifatida qaragan. Bolalarni go'dakligidanoq o'qitish, ilmi qilish tavsiya etilgan. Agar o'g'ling bo'lsa, - deyiladi “Adurbadning o'gitlari”da, – uni bolaligidanoq maktabga ber, zotan, bilim ko'z nuridir”.

Garchi, o'sha davrdagi boshqa dinlarda bo'lgani kabi, zardushtiylikda ham quldorlik qoralanmagan bo'lsa-da, zardushtiylik huquqiga ko'ra, qul muayyan huquqlarga ega bo'lgan. Ayrim hollarda u o'z xo'jayiniga qarshi da'vo qo'zg'atishi mumkin bo'lgan. Ana shunday hollardan biri zardushtiylikning “Taqdir” kitobida eslatib o'tilgan.

Umuman olganda, zardushtiylik huquq manbai bo'lib xizmat qilishdan tashqari, jamiyat hayotining huquq bilan bog'liq barcha sohalarini o'zida to'liq jamlashga intilgan. Zardushtiylik dinining ana shu xususiyati uni yahudiylik (iudaizm) va nasroniylik bilan bir qatorga olib chiqqan. Shu bois, o'z huquqiy tizimini yaratish u yoqda tursin, huquqiy munosabatlarga kirishishdan umuman qzini chetga oladigan majusiylar – gnostiklar, buddaparastlar va manixeylardan farqlash uchun zardushtiylik, yaxudiylar va nasroniylarni musulmon ilohiyotchilari “qonun kishilari” (aftidan “o'z qonunlari bor kishilar”) deb hisoblashlari bejiz emas. Gnostiklar, buddaparastlar va manixeylar o'z huquqiy tizimlarini yaratishga intilmaslik bilan birgalikda, umuman, huquqiy munosabatlarga kirishishdan o'zlarini olib qochganlar, buni faqat zarurat bo'lgan hollardagina bajarganlar[31].

Ota – bobolarimiz tomonidan aytilgan hikmatli so'zlari ham buning yorqin dalilidir. Ezgu amalga yuzlanadigan bo'lsak inson hayotining mohiyati qanchalik ezgu amalarga yo'g'rilgani avesto misolida ko'rib chiqishni joiz ko'rdik. “Avesto” insonlarni ezgulikka, yaxshilikka da'vat etuvchi ezgulikni himoya qiluvchi, yovuzlik va jaholatdan uzoqlashishga chaqiruvchi g'oyalarni ilgari suradi[6]. Dunyo yaralibdiki yaxshilik-yomonlik, ezgulik-yovuzlik o'rtasida azaliy kurash bo'lib keladi albatta har doimgidek yaxshilik, ezgulik jaholat ustidan g'alaba qilganini guvohi bo'lamiz. Inson hayoti ikki ibtidodan yaxshilik va yovuzlikdan ikki qarama-qarshilikdan iborat bu ikki ibtido inson botinida-ichki dunyosida doim inson bilan hamrohdur inson Axura Mazda yoki Axriman tomonida bo'lishi uning o'z ichki hissiyotlariga bog'liq bo'lgan hodisadir. Ezgu fikrlar, ezgu amallar o'z navbatida davlatning birligini uning mustahkamligini kuchning g'oyalarning birdamligini ta'minlashda yagona maqsad yagona ishonch e'tiqodda birlashtirishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, “Avesto” ayrim hollarda davlat yaxlitligini va birligini ta'minlashda boshqaruvda umummanfaat va g'oyalar mushtarakligini vujudga keltirishda muhim rol o'ynaganligini e'tirof etgan[7]. Bu qarashlar bu fikrlar hozirgi davlat boshqaruvida, siyosat yuritishda, ijtimoiy tenglik va adolat uchun ham shak – shubhasiz mosdir. Beruniyning necha ming yillar ilgari vaqt uchun aytilgan bu hikmatlari o'sha davr uchun muhim yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi yo'l chiroq vazifasini bajargan hayratlanarli jihati shundaki avesto insonyatning ilk kunlaridan buyon har qanday mavzularda o'zining beminnat ko'rsatmalarini berib kelmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki nafaqat axloqiy, diniy, dunyoviy, falsafiy ko'nikmalar balki davlat boshqaruvi uning rivoji, qadimda dushmanlarga nisbatan yuritilgan siyosat

bo'yicha yo'riqnoma sifatida qarasaq xato bo'lmaydi. "Avesto" qadim qadimdan o'zining jozibasi o'zining axloqiy qarashlari bilan insoniyatni lol qoldirib kelmoqda bu yodgorlikni asrab avaylash burchimizdir.

Tarixiy me'rosni asrab avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bizning xavas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Xavas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor va ishonaman, Xudo xoxlasa, xavas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham bo'ladi (buni olib tashlang)[8]. Bundan ko'rinib turibdiki har birimiz ajdodlar qoldirgan buyuk meroslarimizni kelajak avodlarga ham yetkazish uchun ma'sulmiz biz bu muqaddas yodgorliklarga nisbatan munosib voris bo'lmog'imiz darkor.

Xulosa qilib aytganda, Avesto haqida qancha ko'p gapirsak shuncha kam chunki bu mukammal yodgorlikning o'rni benihoyat tengsizdir. Avestoda komil inson tarbiyasi kerak bo'lsa, farzandning axloqi, tarbiyasi yuzasidan ham ko'rsatmalar mavjud. Inson ma'naviyati uning axloqiy yo'nalishlarida ham muhim manbadir. Inson botinidagi ezgulik va yovuzlikka, yaxshilik va yomonlikka qarshi kurashish Axura Mazda va Ahriman siymosida o'z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон – тараққиёт стратегияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2022 - Б. 129.
2. Safa-Isfehani N. Rivayat-i Hemat-i Asawahistan: A Study in Zoroastrian Law (Harvard Iranian Ser). - Cambridge, 1980. Vol. 2. – P. I.
3. Саидов А.Х. Инсон ҳуқуқлари буйича халқаро ҳуқуқ- Дарслик. – Т.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – Б.36.
4. Avesto. – Toshkent: “Ta’lim nashriyoti”, 2021. – B.12.
5. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –Т.: “Ma'naviyat”, 2015. – B.32.
6. Kalkanov Eshmatboy. (2021) [Patriotism and Socio-Spiritual Factors that Patriotism](#). International Journal of Development and Public Policy. –pp. 177-179.
7. Karimov D. (2022). O'zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasida diniy-axloqiy bilimlarning o'rni / Interdisciplinary research: scientific horizons and perspectives III International Scientific and Theoretical Conference, -p. 80-81.
8. Umidbek Adambayev. (2021) Faith – the conception of belief and steps to develop it / Actual problems of modern science, education and training. – p. 96.
9. Umid Adambayev. (2021). [Milliy o'zlikni anglash millat taraqqiyotining poydevori](#) // Scientific progress. – pp. 1858-1862.
10. Кандов Б.М. (2022) [Роль этнокультуры в воспитании молодежи Узбекистана в духе национальной идеологии](#). Conference Zone. – pp. 77-80.
11. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). [Socio-legal foundations for the development of a civic position among the youth of a renewed Uzbekistan](#). International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – pp. 185-188.
12. Kandov B.M. (2022). The Role of Religious and Moral Values in Strengthening the Spiritual Development of Society and Individuals // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 88-92.
13. Kandov B. (2022) [Current Issues of Harmony of Human and National Values In the Formation of Civil Station of the Youth of New Uzbekistan](#). Journal of Ethics and Diversity in International Communication 1 (8), 30-33.

14. Адамбаев Умидбек. (2022) [Ишонч-эйтиқодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири](#) / Scientific progress. – pp. 348-351.
15. Kandov В.М. Ikramov R.A. (2022) The Role of Ecological Values in the Private Perspective in the Process of Globalization // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 68-73.
16. Баходир Мирзаевич Қандов. (2021) [The importance of forming an active civic position among young people](#). Актуальные научные исследования в современном мире. – С. 102-106.
17. Umidbek Xaitbayevich Adambayev. (2022) [Navro'z bayrami va uning etnomadaniy ahamiyati](#). Academic research in educational sciences. – pp. 175-177.
18. Умидбек Адамбаев. (2022) [Ишонч-эйтиқодни шакллантиришда аргументлашнинг ўрни](#) // Academic research in educational sciences. – p. 898.
19. Умидбек Хаитбаевич Адамбаев. (2022) [Экологик маданият ва уни шакллантириш](#) // Academic research in educational sciences. – pp. 125-134.
20. Қандов Б.М. (2021). [Philosophical and Legal Problems of Women's Rights And Freedoms in the Process of Globalization](#) // Актуальные научные исследования в современном мире. – pp. 65-70.
21. Bakhodir Qandov. (2020) [Human Rights are a Social Phenomenon: The Principles of Globalization and Personal Liberty](#). – P. 488-495.
22. Kandov В.М. (2021). [Problems of Global Ecology and Socio-Natural Environment](#) // International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – pp. 182-186.
23. Ikramov R. Kandov В.М. (2021). [The Role of Education and Upbringing in the Formation of a Harmonious Personality in the Process of Globalization](#) // Journal of Ethics and Diversity in International Communication. – pp. 33-37.
24. Togayev Shavkat Hurramovich. Kandov Bakhodir Mirzayevich. (2021) [The role of education in the development of environmental consciousness of a person](#). ISJ Theoretical & Applied Science, 1129-1133.
25. Bakhodir Qandov, Hamza Juraev. (2020) [Creation of a New System of Education and Education in the Bukhara People's Republic](#) // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – pp. 496-501.
26. Ikramov Ravshan Aktamovich, Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. (2020) [Historical and Theoretical Roots of Establishing a Democratic Law in Uzbekistan](#). EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – pp.507-510.
27. Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. [Factors in the Development of Civil Society Institutions in the New Uzbekistan](#) // International Journal of Development and Public Policy Vol. 2 No. 3 (2022). – pp. 84-91.
28. Sultanov Og'abek. The essence of the obligation in the views of eastern thinkers. Academia Globe: Inderscience Research. –p. 39-42.
29. Adambaev U. (2021). [Confidence-nonverbal methods of argumentation in the formation of the verb](#) // Экономика и социум. – С.18-21.
30. Ганбаров С.Г. Политические и правовые идеи в Авесте: Автореф.дисс. канд.юрид.наук. – Баку, 1992. – С. 12-13.
31. Саидов А.Х., Жужжоний А.Ш. Шарқ цивилизацияси: Инсон ва ҳуқук. – Т.: Адолат, 2005. – Б. 31.